

Navoiy bo`limi qoshidagi Idoralararo ilmiy-texnikaviy kengashning navbatdagi yig`ilishi

O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo`limi qoshidagi Idoralararo ilmiy-texnikaviy kengashning 2018 yilgi tasdiqlangan Ish rejasiga muvofiq 10 iyul kuni O`zR FA Prezidiumi zalida ushbu kengashning kengaytirilgan majlisi bo`lib o`tdi.



Unda O`zR FA vitse-prezidentlari, bosh ilmiy kotibi, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari ishtirok etishdi. Yig`ilishda "Navoiy KMK" Davlat korxonasi va "Navoiyazot" AJda mavjud muammolar hamda ularning yechimlari, shuningdek, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi uchun qilinishi kerak bo`lgan ishlar muhokama qilindi.